



TEODOR DRAYZERNING “SARMOYADOR VA SADRIDDIN”
AYNIYNING “SUDXO‘RNING O‘LIMI” ASARLARIDAGI BOSH
OBRAZLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Mardanova Mohira Davron qizi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207254>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Teodor drayzerning “Sarmoyador” va Sadridin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” asarlaridagi ushbu ikki obrazning psixologik tahlili orqali ularning xarakterini shakllantirgan omillar, ma’naviy tanazzul sabablari va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sudxo‘rlik, psixologizm, axloqiy qadriyatlar, psixologik tahlil, ijtimoiy tahlil, ma’naviy qadriyatlar, shaxsiy manfaat, ikkiyuzlamachilik, badiiy uslub.

Kirish. Boylik orttirish maqsadida sudxo‘rlik va o‘z manfaatlarini o‘ylab yashaydigan insonlar hayotini tasvirlash adabiyotda har doim muhim mazulardan bir hisoblanib kelmoqda. Ingliz adabiyotida Teodor Drayzerning “Sarmoyador” romanidagi Frenk Koupervud va O‘zbek adabiyotida Sadridin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi Qori Ishkamba obrazlari boylik orttirish maqsadida axloqiy qadriyatlarning buzulishiga sabab bo‘lgan shaxslarning namunasi sifatida tasvirlangan. Ushbu asrarlar yillar davomida o‘zining ahamiyatini va o‘quvchilar qiziqishini undagi obrazlarning mohirona tasvirlanganligi bilan diqqatini tortib kelmoqda. Ushbu obrazlarning psixologik holatlarini tasvirlashdan avval ba’zi tushunchalarni ta’kidlab o‘tsak. Psixologizm tushunchasi XX asrning 40-yillaridan boshlab izohli lug‘atlarda aniq ta’riflana boshlagan. D.N.Ushakov tahriri ostidagi “Rus tilining izohli lug‘ati”da u san’atda ruhiy kechinmalarni chuqur tasvirlashga moyillik sifatida izohlangan. S.I.Ojegov va V.I.Chernishev tomonidan esa bu tushuncha adabiyotda psixik holatlarni teran tasvirlash va psixologik tahlil bilan bog‘langan. Keyinchalik nashr etilgan lug‘atlardagi ta’riflar ham ushbu yondashuvga asoslangan bo‘lib, ruhiy hodisalarni chuqur tahlil qilish va tasvirlashga urg‘u beradi. Psixologizm mohiyatini aniqlashda uning ikki jihati ajralib turadi: qahramon ichki olami va badiiy adabiyot vositalari. Qahramon ichki dunyosi bevosita uning psixik holati bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, psixologizmni psixologiya hamda adabiyotshunoslik bilan aloqador fanlararo tushuncha sifatida qarash lozim. Shu bois, uni tadqiq etishda har ikkala sohaga oid konsepsiyalarni qo‘llash zaruriyat hisoblanadi. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan, psixologizm personajlar ichki



olamini ochib beruvchi badiiy shaklning muhim jihatlaridan biridir. Ayrim asarlarda, xususan, psixologik romanlarda, u uslubiy dominanta bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda nafaqat personaj obrazlari, balki tasvirlangan olam, badiiy nutq va kompozitsiya ham psixologizmga bo‘ysunadi. Natijada, psixologizm badiiy shaklning barcha unsurlarini qamrab oluvchi san‘at usuliga aylanadi. Shuni ta’kidlash joizki, psixologizm badiiy shaklning alohida sifati bo‘lsa-da, u asar mazmunidan ajralgan holda emas, balki uning ichki tuzilishiga singdirilgan holda namoyon bo‘ladi[7]. Shu o‘rinda obraz va obrazlilik adabiyotda qissa, roman, she‘r va hikoya yozishda katta ahamiyatga ega ekanligini eslatib o‘tsak. Ular asar muallifining fikr-mulohazalarini badiiy bo‘yoqlar orqali o‘quvchiga yetkazishga yordam beradi. Obrazlar insonlarning psixologik xususiyatlarini, jamiyatdagi o‘ziga xos xulq va tabiatini ifodalaydi. Shuningdek, obrazlilik yozuvchining shaxsiy xarakteri, hayot tarzi va uslubini ham aks ettiradi. Endi obraz va obrazlilik tushunchalarining tahliliga e’tibor qarataylik. Ma’lumki, adabiyotda bu tushunchalar ilmiy tadqiqot va ta’lim jarayonida keng o‘rganiladi. Shu o‘rinda Teodor Dayzerning “Sarmoyador” hamda Sadridin Ayniying “Sudxo‘rning o‘limi” asarlaridagi obraz va obrazlilik timsollarini misol tariqasida keltirsak. “Sudxo‘rlik” iborasi mazmun-mohiyati ko‘plab asarlar orqali bizga kundek ravshan. Ammo “Sudxo‘rlik” tushunchasini biz Sadridin Ayniying “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi orqali chuqurroq anglashimiz mumkin. Bu qissadada sudxo‘rlikning barcha illatlari o‘ziga xos yorqin ifodasini topgan: ularning jamiyatda uchraydigan adolatsizlik va tengsizlik kabi misollarda aks ettirilgan. Teodor Drayzerning “Sarmoyador” romanida ham qahramonlarning ruhiy kechinmalari yorqin aks etadi. Masalan, Frenk Kouvpervud boylik va muvaffaqiyat sari intilarkan, u ichki iztirob va bezovtalikni ham boshdan kechiradi. U moliyaviy muvaffaqiyatsizliklar girdobida qolganida, yuragi gupillab uradi, u har qanday noxush xabarni kutib yashaydi. Uning ongini doimiy xavotir va ehtimoliy yo‘qotish qo‘rquvi egallaydi. Tahlikali pallalarda bu bezovtalik tabiiy hol – u hamisha muvaffaqiyat uchun kurashadi, lekin ich-ichidan insoniy zaifligini his qiladi. Frenk Kouvpervud shunchalar o‘z orzulari og‘ushiga g‘arq bo‘lganki, har bir imkoniyatdan umid qiladi, o‘z maqsadlariga erishish uchun hatto imkonsiz narsalarga ham suyanadi. U muvaffaqiyat va sarmoya yo‘lida har qanday yo‘ldan borishga tayyor bo‘lsa-da, ba’zan o‘zining ichki kechinmalaridan, jamiyatning unga nisbatan munosabatidan qochib qutula olmaydi.

Shuni takildash joizki: adabiyotda obraz tushunchasi ijodkorning fikr va tuyg‘ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Aynan mana shu omillar bizga



asarlarda ijodkorning qalb so‘zi va ruhiyatini anglashda katta yordam beradi, deb bemalol ayta olamiz. Ushbu maqolada Frenk Koupervud va Qori Ishkamba obrazlarini psixologik tahlil qilish uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

Qiyosiy adabiy tahlil – ikkala obrazni tahlil qilish va ularning o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash.

Psixologik tahlil – xarakterlarning shakllanishiga ta’sir qilgan ichki va tashqi omillarni o‘rganish. **Ijtimoiy tahlil** – obrazlarning jamiyat bilan o‘zaro munosabatini aniqlash va ularning axloqiy qadriyatlarga munosabatini tadqiq qilish. Frenk Koupervud va Qori Ishkamba obrazlarining psixologik tahlili quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

1. Ma’naviy qadriyatlar va shaxsiy manfaat:

Frenk Koupervud pragmatik va aqlli tadbirkor bo‘lib, uning asosiy maqsadi boylik va qudratga erishishdir. U axloqiy cheklovlarni deyarli tan olmaydi va o‘z maqsadlari yo‘lida har qanday vositani qo‘llaydi [1]. Qori Ishkamba esa diniy maska ostida harakat qiluvchi shaxs bo‘lib, sudxo‘rlik orqali odamlardan foydalanadi va ularning qashshoqlashishiga sabab bo‘ladi [2].

2. Psixologik motivatsiya:

Frenk Koupervudning harakatlariga asosiy turtki – kapitalistik jamiyatdagi imkoniyatlarni maksimal darajada ishlatish va o‘zini haqiqatga moslashtirishdir [3]. Qori Ishkamba esa shaxsiy manfaatlarini diniy taqvodorlik bilan yashirishga harakat qiladi, ammo oxir-oqibat uning ikkiyuzlamachiligi fosh bo‘ladi [4].

3. Jamiyat bilan munosabat:

Frenk Koupervud kuchli xarakter egasi sifatida jamiyatning yuqori qatlamlariga kirishga intiladi va u yerda katta ta’sir o‘tkazadi [5]. Qori Ishkamba esa jamiyatning zaif qatlamlarini ekspluatatsiya qiladi va natijada jamiyat tomonidan qabul qilinmaydi [6]. Koupervudning ichki dunyosida o‘zining iqtisodiy muvaffaqiyatlariga erishishda boshqalarning ishonchiga xiyonat qilish, axloqiy mas’uliyatni unutish va haqiqiy baxtni yo‘qotish kabi psixologik ziddiyatlar mavjud. U o‘zining baxtini faqat iqtisodiy yuksalishda topishga intiladi, lekin oxir-oqibat, bu muvaffaqiyatdan keyin o‘zining ichki bo‘shliqlarini, yolg‘izligini va baxtsizlikni his qiladi. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, Frenk Koupervud va Qori Ishkamba obrazlari jamiyatning turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarida vujudga kelgan, ammo ular o‘rtasida muhim o‘xshashliklar mavjud. Ikkalasi ham sudxo‘rlik va iqtisodiy ekspluatatsiya orqali jamiyatda o‘z mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi. Ammo, Frenk Koupervud jamiyatda katta biznes dunyosining qoidalariga asoslanib harakat qilsa, Qori

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Ishkamba an'anaviy jamiyatning diniy va axloqiy normalarini buzib, o'z manfaatini ustun qo'yadi. Bu jihatdan, Drayzer va Ayniyning qarashlari bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, ularning badiiy uslublari turlicha. Drayzer Koupervud obrazini kapitalistik dunyoning tabiiy mahsuli sifatida tasvirlasa, Ayniy Qori Ishkamba obrazida milliy va diniy ekspluatatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Xulosa. Frenk Koupervud va Qori Ishkamba obrazlari boylik orttirish yo'lida axloqiy tamoyillarni rad etgan shaxslarning turli ko'rinishlaridir. Drayzer va Ayniy o'z asarlarida sudxo'rlik va iqtisodiy ekspluatatsiya orqali jamiyatning buzilishi jarayonini tasvirlab, inson psixologiyasining murakkabligini ochib bergan. Koupervud va Qori Ishkamba xarakterlari orqali adabiyotda shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarning aks etishini ko'rish mumkin. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ma'naviy tanazzul har bir jamiyatda turlicha namoyon bo'lsa-da, uning ildizlari o'xshash – boylik, hokimiyat va shaxsiy manfaat ustuvorligi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboxonov, M. R. (2023). Hozirgi o'zbek romanlari strukturasi va psixologizm muammosi. Samarqand Davlat Universiteti.
2. Drayzer, T. (1912). The Financier. New York: Harper & Brothers.
3. Ayniy, S. (1923). Sudxo'rning o'limi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
4. Pizer, D. (1976). The Novels of Theodore Dreiser: A Critical Study. Minneapolis: University of Minnesota Press.
5. Saidov, U. (2005). O'zbek adabiyotida ijtimoiy masalalar. Toshkent: Fan.
6. Jones, G. (1995). Capitalism and Literature: The Social Critique of Theodore Dreiser. London: Routledge.
7. Karimov, B. (2010). Sadridin Ayniy va uning ijodi. Samarqand: Sharq nashriyoti.